



# ISSUE 4

AKADEMIC JOURNAL  
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)  
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

May - June 2024

## **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI STEAM XALQARO DASTURI VOSITASIDA FAOLLASHTIRISH ASOSLARI**

Axmedova Gulnora Madjitovna

*CHDPU, Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada STEAM xalqaro dasturi haqida so‘z boradi. Ta ’limning nisbatan yuqori bosqichlarida o‘quv rejasida ta ’lim mazmunini integrallashtirish orqali o‘quv yuklamalari hajmi qisqartiriladi.

**Kalit so‘z:** hamkorlik, texnologiya, ta ’lim, tarbiya

Xalqaro miqyosda o‘quvchilar kasb –hunarga yo‘naltirish innovatsion rivojlantirish, zamonaviy ta ’limni amalga oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi oliy ta ’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda o‘quvchilar tadqiqotchilik mahorati mezonlari, innovatsion ta ’lim muhitini yaratish muammolari, xalqaro ta ’lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda o‘quvchilarning texnologik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va robototexnikaning ta ’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llanishi, tanqidiy fikrlash, g‘oyalar generatsiyasi, komunikativ, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash, kabi indikatorlar asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi. Texnologiya ta ’lim jarayoni faoliyatini mazmunan takomillashtirish, zamonaviy va ilg‘or xorijiy tajribalarni amaliyotga keng tadbiq etish, STEAM yondashuv asosida o‘quvchilarni kasb-hunar yo‘naltirish masalalari ilmiy muammo sifatida yuzaga chiqmoqda:

- jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq jahon hamjamiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar;
- o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ilmiy jihatdan yondashuv asosida ijobjiy o‘zgarishlarga olib kelayotganligi;
- ta ’lim jarayoni mazmunan isloh qilishda STEAM dasturlarning amaliyotga joriy etilayotganligi;
- fanlararo integratsiyalashgan mazmun asosida STEAM ta ’lim amaliyoti yaxlit muammo sifatida tadqiq etish.

Hozirgi kunda texnologiya darslarida barkamol shaxsni tarbiyalash, uzliksiz ta’lim jarayoniga qo‘yilayotgan ijtimoiy buyurtma ilg‘or xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirilmaganligi hamda ta’lim mazmunini yangilab borish zarurati; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash orqali bolalarni individual rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va uslubiy materiallar o‘quvchilar kasb-hunarga yo‘naltirishda yetarli darajada ta’milanmaganligi; o‘quvchilar egallayotgan bilim va ko‘nikmalarining kasbiy faoliyatda talab etiladigan ko‘nikma va malakalar darajasiga muvofiq emasligi tadqiq etilayotgan muammoning dolzarbligini belgilaydi.

«STEAM – ta’lim» yondashuv ta’lim va o‘qitishga qarashlarni o‘zgartiradi. Amaliy qobiliyatlarga urg‘u berib, o‘quvchilar o‘z iroda kuchi, ijodiy salohiyati, egiluvchanligini rivojlantiradi, boshqalar bilan hamkorlikka o‘rganadi. Bu ko‘nikma va bilimlar asosiy o‘quv vazifalari, ya’ni butun ta’lim tizimi qaysi tomonga intilishini anglatadi.

Bu texnologiya bo‘yicha ishlashning muhim xususiyati – aynan STEAM – loyiha ustida jamoaviy ishlash miyaning ijod, hissiyotlar uchun javob beradigan o‘ng yarim sharini ishga solish imkonini beradi. Bu texnologiya bo‘yicha muvaffaqiyatli loyiha ishlariga ko‘plab misollar keltirish mumkin.

O‘qitishning an’anaviy metodlari qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lmashin, zamonaviy reallik ta’lim (o‘qitish)ning tobora yangi va samarali shakllarini izlashni talab etadi.

Butun hayoti mobaynida mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini singdirish, turli darajadagi hamkorlikka o‘rgatish, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – bu va boshqa ko‘plab prinsiplar zamonaviy ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tashkil qiladi.

Agarki biz o‘quvchilarimizni hayotga tayyorlar ekanmiz, ularga keyinchalik baribir kundalik hayotining bir qismiga aylanadigan qurollarni qo‘llashga ruxsat berishimiz kerak.

«STEAM – ta’lim» dan foydalanib ishni tashkil qilishda quyidagi asosiy pedagogik tamoyillarni hisobga olish zarur:

- *integrativlik* (ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl va metodlarini belgilaydigan o‘qitish jarayoni komponentlarining o‘zaro aloqadorligi nazarda tutiladi);
- *onglilik va faollik* (ma’lum va noma’lum o‘rtasida muayyan mantiqiy aloqalarni belgilash, predmet va hodisalar o‘rtasida sabab-oqibat aloqadorliklarni tushunishni ta’minlaydigan ta’lim oluvchining individual xususiyatlarini hisobga oladigan bilimlar bilan ishlashni nazarda tutadi);
- *ko‘rgazmalilik* (qat’iy qayd qilingan ilmiy qonuniyatlarni o‘z ichiga olgan axborotni ko‘rgazmali namoyish etishni);
- *tizimlilik* (ta’lim oluvchilarining yoshiga bog‘liq tarzda tarbiya mazmuni va shakllari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikni ta’minlaydi);
- *tushunararlilik va izchillik* (ta’lim va tarbiyaning birligini ta’minlaydi);
- *tabiatga muvofiqlilik* (bolani uning jismoniy va ma’naviy rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi);
- *hamkorlik* (oila, ta’lim muassasasi, jamoatchilikning ta’lim va tarbiya sohasida o‘zaro hamkorligi). Loyiha ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik qiladi, baholashning turli vosita (quroq)laridan foydalanadi, ya’ni universal o‘quv harakatlarini egallaydi. Bunda o‘quvchilar emas, balki o‘quvchilar nimani bilishi va uddalashi, qanday ishlashini namoyish qiladi.

Maktab o‘qituvchilari loyihalash faoliyatiga katta e’tibor qaratadi, chunki u o‘quvchilarining mustaqil ishlashiga qaratilgan. Pedagog bu faoliyatni yo‘naltiradi xolos, natijada, ta’lim faoliyati sifati oshadi, tizimli fikrlash rivojlanadi.

Har bitta mashg‘ulotni loyihalashtirib o‘qitish asosiga qurish imkonsiz ekani tushunarli, chunki bunday darslarni 40-45 daqiqalik standart vaqtga sig‘dirish qiyin, ba’zi maktablarda u yoki bu loyihani amalga oshirish uchun kerakli jihozlar mavjud emas. Shu sababli ta’limning sifati va to‘laqonligini ta’minlanishi uchun maktab va qo‘srimcha ta’lim o‘qituvchisining hamkorlik qilishi zarur. Bunda qo‘srimcha ta’lim dasturlarining mazmuni ular bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan

o‘quv fanlari mazmuni bilan muvofiqligi muhim shart hisoblanadi. Shunday qilib, o‘quv materialini kengaytirish uchun dars doirasidan chiqish imkonи paydo bo‘ladi. Umumiy va qo‘srimcha ta’limning afzalliklari aniq va ravshan. Qo‘srimcha ta’lim umumiy ta’limning variativligini kuchaytirishni ta’minlaydi va o‘quvchilarning maktab darslarida olingan bilimlarini amalda qo’llashlariga ko‘maklashadi. Bundan tashqari, qo‘srimcha ta’limning asosiy mazmuni, odatda, amaliy yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ya’ni bola amaliy vazifalarni hal qilish yo‘llari va yechimlarini mustaqil izlaydi, obektlar, tabiat hodisalari ustida kuzatish va tadqiqotlar vaqtida bilimlarni o‘zlashtiradi. Bunday ta’lim, albatta, faqat ijodiy, bolaga o‘zi uchun qiziqarli bo‘lganlarga muvofiq rivojlanishning o‘z yo‘lini izlash sharoitlarini yaratadigan bo‘lishi mumkin.

Fanlarning real hayot bilan aloqalaridan tashqari bu yondashuv o‘quvchilarning ijodkorligi uchun ham yo‘l ochadi. Bunday yondashuvda kichik yoshdagи o‘quvchilarning loyihalash faoliyati hal qilinishi bo‘lgan qator vazifalarni belgilaydi. Yagona to‘g‘ri yechim mavjud emas, o‘quvchiga to‘liq ijod erkinligi beriladi. Bunday topshiriqlar yordamida bola nafaqat g‘oyalarni generatsiyalaydi, balki ularni hayotga tatbiq qiladi ham. Shunday qilib, u qo‘yilgan vazifadan kelib chiqib o‘z faoliyatini rejalashtirishga o‘rganadi, bu unga real hayotda albatta kerak bo‘ladi.

Ixtisoslashtirilgan o‘qitish tizimi. Maktabdan tashqari ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning qobiliyatları va moyilliklariga qarab amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, ularning bilim darajasi va kasbiy talablar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraф etishdir. Maktabdan tashqari ta’lim tizimida quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

- 1. Tashxisli**
- 2. Tashkiliy.**
- 3. Ta’limiy.**
- 4. Nazorat.**

Kasb-hunarga tayyorgarlikni amalga oshirishda quyidagi tamoyillar amalga oshiriladi:

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;

g‘oyalar tamoyili (o‘quvchilarni tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari, qobiliyatlar bo‘yicha ajratish), kasb-hunarga tayyorlash tarkibidagi moslashuvchanlik tamoyili va boshqalar. Asosiylar, ixtisoslashgan va ixtisoslashtirilgan fanlarni to‘ldiruvchi vositalarni tanlash alohida o‘rin tutadi. Shunday qilib, zamonaviy kasb-hunarga bo‘lgan tayyorgarlikni tashkil etishga tizimli yondoshish ixtisoslashtirilgan ta’lim kontsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga va moyilligi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda yoshlarning kasb-hunarga tayyorgarligini yaratishga imkon beradi, ularning hayoti va yo‘nalishini mustaqil ravishda belgilash, ongli bo‘lishga tayyorlikni shakllantirishga imkon beradi. Kelajak kasbini tanlash va o‘zlashtirish ijodiy tadqiqotchilik faoliyati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, psixologik muhim xususiyatlarini ko‘rsatish lozim bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abduraimova G.O. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “Texnologiya” fanini o‘qitishga tayyorlash yo‘llari va vositalari. // Pedagogika. – Toshkent, 2019. – №1. – B. 20 – 28.
2. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya: Ucheb. posobiye dlya stud. vuzov. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 1997. – 704 s.
3. Avazboyev A.I. O‘quv predmetlarini mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiy. – T.: -2001. – 124 b.
4. Averin V.A. Psixologiya detey i podrostkov: Uchebn. posobiye.- 2-ye izd., pererab.-SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 1998.-379s.
5. Averichev Y.P. Trudovoye nachalo v shkole: uroki proshlogo // Shkola i proizvodstvo, 1999. – №1. – S. 15–22.
6. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2003. – 174 b.



**AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)**  
**international scientific journal**  
**4-son**

Nashr qilingan sana: 29.06.2024.  
Shrift: "Times New Roman".

**"ACADEMIC JOURNAL" MCHJ**

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog'iston ko'chasi, 116/6.  
[www.ajeruz.com](http://www.ajeruz.com), [info@ajeruz.com](mailto:info@ajeruz.com), +998950457172